

**BOLALARNI BAXTSIZ HODISALARDAN KOMPLEKS SUG'URTA QILISH
SUG'URTA QILISH MUHIM SHARTLARI
(JISMONIY)**

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Sug'urta qildiruvchilarning 18 yoshgacha bo'lgan Sug'urtalangan shaxsning hayoti va sog'lig'iga bog'liq Qonunchilikka zid kelmaydigan mulkiy manfaatlari (Sug'urtalashning yakka yoki jamoa tartibida) Sug'urta obyektini hisoblanadi.

**II. SUG'URTA PULI, SUG'URTA MUKOFOTI MIQDORI
VA ULARNI TO'LASH TARTIBI**

2.1. Sug'urta puli miqdori:

- a) baxtsiz hodisalar bo'yicha: **10 000 000 (o'n million)** so'm;
- b) yuqumli kasalliklar bo'yicha: **1 000 000 (bir million)** so'm miqdorida belgilanadi.

2.2. Sug'urta tarifi miqdori:

- a) baxtsiz hodisalar bo'yicha: Sug'urta pulidan **0,2 %** miqdorida belgilanadi;
- b) yuqumli kasalliklar bo'yicha: Sug'urta pulidan **1,0 %** miqdorida belgilanadi.

2.3. Sug'urta mukofoti miqdori:

- a) baxtsiz hodisalar bo'yicha: **20 000 (yigirma ming)** so'mni tashkil etadi;
- b) yuqumli kasalliklar bo'yicha: **10 000 (o'n ming)** so'mni tashkil etadi.

2.3 Sug'urtalovchi hisob raqamiga Sug'urta mukofoti kelib tushgandan so'ng 5 kun ichida Sug'urta qildiruvchiga sug'urta polisi beriladi.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urta polisini yo'qotgan hollarda uning yozma ravishdagi arizasiga asosan Sug'urtalovchi Sug'urta polisini ko'chirma nusxasi (dublikati)ni yozib beradi. Yo'qotib qo'yilgan Sug'urta polisi bekor qilinib, u bo'yicha sug'urta javobgarligi olib borilmaydi.

III. SUG'URTA HODISASI

3.1. Sug'urta muddatida, Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da ko'rsatilgan baxtsiz hodisalar, yuqumli kasalliklar bilan kasallanishi oqibatida sog'lig'iga zarar yetishi yoki ushbu hodisalar natijasida vafot etishi Sug'urta hodisasi hisoblanadi va shu tufayli Sug'urtalovchining jabrlanuvchiga yoki Sug'urta qildiruvchiga Sug'urtalangan shaxsning olgan jarohatiga qarab Sug'urta pulini ma'lum qismini yoki sug'urta so'mmasini to'liq, vafot etganda esa Sug'urta qildiruvchiga yoki vorislariga Sug'urta pulini to'liq to'lash majburiyati kelib chiqadi.

Sug'urtalangan shaxs yuqumli kasalliklar bilan kasallanganda Sug'urta qildiruvchiga yoki vorislariga Sug'urta pulini to'liq to'lash majburiyati kelib chiqadi.

3.2. Quyidagilar sug'urta hodisasi hisoblanadi:

-baxtsiz hodisalar – kutilmagan hodisalar natijasida tananing jarohatlanishi, jarohatlanish natijasida tana a'zolarini ishlash funksiyasini o'zgarishi yoki o'limga olib keluvchi tabiatda bo'ladigan hodisalar: kuyish, muzlab qolish, cho'kish, (shamollash va kasallik tufayli vafot etishdan tashqari), elektr toki va yashin urishi, tabiat hodisalari (tezligi 20 m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko'chki, do'l, juda kuchli qor yog'ishi), portlash hamda hayvonlar tajovuzi, tishlashi, chaqishi natijasida shikastlanishlar, g'araz niyatli shaxsni hujumi, Sug'urtalangan shaxsning yiqilishi yoki ustiga biror bir jismni tushib ketishi, jismning urilishi, transport vositalarining (avtomobil, poyezd, tramvay va boshqalarni) ag'darilishi yoki ularning harakati vaqtida yo'l transport hodisalarida, mashina, mexanizmlardan va boshqa turdagi asboblardan foydalanayotganda olingan jarohatlar, tasodifan nafas olish yo'lga biror narsa tiqilib qolishi, zaharli o'simliklar, kimyoviy moddalar ta'sirida kuchli zaharlanish, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar bilan tasodifan zaharlanish, tasodifan suyak sinishi, chiqishi, bo'g'im va to'qimalarning uzilishi, tana a'zolarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, tana ensefaliti yoki emlashdan keyingi ensefalit (ensefalomiyelit) poliomiyeelit, gematogen osteomiyeelit;

-yuqumli kasalliklar – (Virusli gepatit (sariq) "A", "B", "C" turlari, Dizenteriya (ichburug')).

3.3. Quyidagi hodisalar Sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

-Sug'urtalangan shaxs Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da ko'rsatilgan baxtsiz hodisalar tufayli shikastlangan yoki yuqumli kasalliklarga chalingan bo'lib, Tibbiy muassasaga murojaat qilmagan va Tibbiy xizmat olmagan bo'lsa;

-Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagan hodisalar oqibatida jabrlanishi yoki yuqumli kasalliklar bilan kasallanishi tufayli sog'lig'i izdan chiqsa;

-Spirtli ichimliklar, narkotik moddalar va boshqa kuchli ta'sir ko'rsatuvchi moddalarni iste'mol qilish natijasida Sug'urtalangan shaxs kasalliklarga chalinishi yoki jarohat olishi;

-yadro portlashi, radiatsiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish ta'sirida, harbiy harakatlar yoki harbiy mashqlar, fuqarolar urushi, ish tashlash, xalq ko'tarilishini har hil turlari oqibatida olingan tan jarohatlari yoki o'lim;

-shamollash va boshqa kasallik tufayli vafot etganda;

-noqonuniy harakatlar, shu jumladan o'zini joniga qasd qilish natijasida Sug'urtalangan shaxslarning sog'ligiga zarar yetkazilishi (uchinchi shaxslarning noqonuniy harakati va tazyiqi ostida qilingan holatlar bundan mustasno);

-Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisob raqamiga tushishdan oldin yoki Sug'urta javobgarligi boshlanishidan oldin Sug'urta qildiruvchi yuqumli kasallikka chalinsa.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) Sug'urta qildiruvchiga (Sug'urtalangan shaxsga) Sug'urta mukofoti to'langandan so'ng 5 (besh) kun muddatdan kechikmay Sug'urta polisini yozib berish;

b) Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qildiruvchiga, Naf oluvchiga sug'urta qoidalarida belgilangan muddatda va tartibda, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirgandan so'ng, Sug'urta ta'minotini to'lab berish;

d) Sug'urta qildiruvchiga nisbatan maxfiylikni ta'minlash;

e) Sug'urta ta'minotini to'lash rad etilganda Sug'urta qildiruvchiga yozma ravishda xabar qilish;

f) Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta shartnomasi muddati davomida sug'urtaga oid maslahatlar berish.

4.2. Sug'urtalovchining huquqlari:

a) Sug'urta qildiruvchi bergan ma'lumotlarni va Sug'urta shartnomasi shartlarini bajarilishini tekshirish;

b) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng Sug'urtalovchiga bila turib (sog'liq va Sug'urta xavfiga oid) yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, Sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topish;

d) Sug'urta hodisasi qonunga zid ravishda bo'lsa, tergov olib boruvchi qidiruv sud tashkilotlaridan belgilangan tartibda hujjatlar olish;

e) Sug'urtalovchi o'ziga qarashli shifokor-ekspertni jabrlangan Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'ini holati va kasallik tarixini o'rganish uchun yuborish;

f) Sug'urta qildiruvchi sug'urtalanadigan bolalarning ro'yxatiga "Bolalarni baxtsiz hodisalardan kompleks sug'urta qilish qoidalari"ning 4.2.-bandida ko'zda tutilgan bolalarni kiritganda hamda Sug'urtalangan bolaning sog'lig'ini holatini Sug'urtalovchiga qarashli shifokor-ekspertni tekshirishiga yo'l qo'ymasa, Sug'urtalovchi Sug'urta pulini to'lashni rad etish;

g) Holis ekspertiza o'tkazish;

h) Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta ta'minoti miqdorini aniqlash bo'yicha kerakli hujjatlarni talab qilish;

i) Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuzaga kelishida aybdor shaxslarga nisbatan to'langan pulni undirish uchun sudda da'vo qo'zg'atish;

j) Amaldagi Qoida va qonunchilikda belgilangan tartibda Sug'urta ta'minotini to'lashni rad etish;

k) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda Sug'urta mukofotini to'lamagan taqdirda Sug'urtalovchi shartnomani bekor qilish.

4.3. Sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs)ning majburiyatlari:

a) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta mukofotini shartnomada belgilangan muddatda va miqdorda to'lash;

b) Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) tuzilayotganda yoki amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan, Sug'urta hodisasi bo'lishi ehtimoli va uni yuz berishi tufayli kutilayotgan zarar miqdori haqidagi ma'lumotlarni xabar qilish;

- d) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtdan 30 (o'ttiz) kundan kechikmay Sug'urtalovchini yoki uning agentini yozma ravishda xabardor qilish;
- e) Sug'urtalovchiga Sug'urta hodisasi taaluqli bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etish;
- f) Zarur hollarda Sug'urtalangan bola jabrlanganda sog'lig'ini holatini tekshirishga va kasallik tarixini o'rganishga Sug'urtalovchiga qarashli shifokor-ekspertga ruxsat berish;
- g) yuqumli kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar (rejali emlash, tibbiy yordam ko'rsatilish jarayonida bir martalik anjomlardan foydalanmaslik oqibatida yuqtirilsa)dan sug'urtalangan shaxsni o'z vaqtida o'tkazish;
- h) Sug'urtalangan va Naf oluvchilarga sug'urtalash Qoidalarini tanishtirish;
- i) Sug'urta shartnomasining shartlarini maxfiyligini saqlash.

4.4. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

- a) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchidan Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urtaga doir maslahatlar olish;
- b) Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda Sug'urta shartnomasiga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish;
- d) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda ushbu Qoidada ko'rsatilgan tartibda Sug'urta ta'minotini olish;
- e) Naf oluvchini tayinlash;
- f) Sug'urtalovchi Sug'urta ta'minotini yoki Sug'urta pulini to'lashni rad etganda unga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish yo'li bilan e'tiroz bildirish.

V. SUG'URTA TA'MINOTINI TO'LASH TARTIBI

5.1. Baxtsiz hodisalar natijasida sog'iligiga zarar yetkazilganda:

- a) Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan baxtsiz hodisalar natijasida sog'lig'iga zarar yetkazilganda Sug'urtalovchiga 30 (o'ttiz) kun ichida xabar qilishi lozim.
- b) Sug'urtalangan shaxs Sug'urtalovchiga murojaatida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi shart:
 - Sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urta ta'minotini olish uchun ariza;
 - Sug'urta polisi;
 - Sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi davolash muassasasining ma'lumotnomasi.
- d) Sug'urtalangan bolaning yumshoq to'qimalari, qulog'i, ko'zi, siydik, jinsiy a'zolari shikastlanganda Sug'urtalovchi shikastlanish oqibatlarini aniqlash maqsadida uni tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun mutaxassis shifokor huzuriga yuborishi lozim.
- f) Zarur hollarda rentgen surati, tergov tashkilotlarining hujjatlari va boshqalar ilova qilinadi. Rentgen suratida Sug'urtalangan bolaning ismi, sharifi, yoshi, tekshirilgan sana va raqami ko'rsatilgan yozuv bo'lishi shart.
- g) Sug'urtalangan bolaning ko'rish yoki eshitish a'zolari jarohat olgan bo'lsa, ko'rish va eshitish a'zolarini jarohatdan oldingi va keyingi holati to'g'risidagi ma'lumot tibbiy muassasadan olinadi.
- h) Bahtsiz hodisalar natijasida to'lanadigan Sug'urta ta'minoti Sug'urta puli doirasida to'lanadi.
- i) Sug'urta shartnomasi kuchda bo'lgan davrda Sug'urtalangan bola olgan jarohati tufayli Sug'urta hodisasi ro'y bergan kundan bir yil ichida vafot etsa, Sug'urta qildiruvchiga yoki vorislariga Sug'urta ta'minoti to'lanadi.
- j) Mazkur polis bo'yicha Sug'urta hodisasi munosabati bilan ilgari ma'lum miqdorda Sug'urta ta'minoti to'langan bo'lsa, ushbu miqdordagi sug'urta ta'minoti jami sug'urta pulidan chegirilgan holda qo'shimcha sug'urta ta'minoti aniqlanadi.
- k) Sug'urtalangan shaxs baxtsiz hodisa tufayli to'lanadigan Sug'urta ta'minoti Jamiyat Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisasi natijasida tan jarohati olishi bo'yicha sug'urta puli miqdorini aniqlash jadvali"ga asosan aniqlanadi.

5.2. Yuqumli kasalliklar bilan kasallanganda:

- a) Sug'urtalangan shaxs (Naf oluvchi) Tibbiy muassasada tibbiy xizmat olishi tufayli yuqumli kasallik bilan kasallanganda (yuqumli kasallikka chalingan kundan boshlab 3 (uch) oy muddat ichida) Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlar bilan murojaat qilinadi:
 - Sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urta ta'minotini olish uchun ariza;
 - Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi Tibbiy muassasaning ma'lumotnomasi;
 - Sug'urta polisi, FHDYO idorasi bergan o'lim to'g'risidagi guvoohnomani nusxasi;

-Vorislilik huquqi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va boshqalar;

-Naf oluvchining pasport nusxasi.

Taqdim etilgan barcha hujjatlar muhrlangan, imzolangan va berilgan sanasi raqamlari bo'lishi shart.

b) Sug'urtalangan shaxs yuqumli kasalliklar (Virusli gepatit (sariq) "A", "B", "C" turlari, Dizenteriya (ichburug') bilan kasallanganda sug'urta puli doirasida sug'urta ta'minoti aniqlanadi.

5.3. Sug'urtalovchiga yuz bergan Sug'urta hodisasi tufayli Sug'urta ta'minotini to'lash to'g'risidagi ariza kelib tushgandan so'ng, mas'ul xodim Sug'urtalangan bolaning yuqumli kasallik natijasida shikastlangan kunini (kun, oy, yil) aniqligi, shikastlanish sababi (qachon, kim tomonidan shikastlangan), qachon va kim tomonidan yordam ko'rsatilgan, shikastlangandan so'ng davolanigan bo'lsa - qayerda, davolanish muddati va boshqalarni to'g'ri va to'liq to'ldirilganligini tekshiradi.

5.4. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)dan Sug'urta ta'minoti to'lash to'g'risidagi arizani olgandan keyin sug'urta ta'minotini aniqlash uchun talab etiladigan hujjatlar yetishmaganda yozma ravishda qo'shimcha hujjatlarni talab qilishi lozim.

Shuningdek, arizada to'lanishi kerak bo'lgan Sug'urta ta'minotini o'tkazish uchun bankning nomi va Sug'urtalangan bankdagi omonati raqami ko'rsatiladi.

5.5. Sug'urta kuchga kirgunga qadar va Sug'urta muddati tugagandan so'ng Sug'urtalangan bola yuqumli kasallik natijasida shikastlangan bo'lib, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga murojaat qilsa, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchidan hech qanday hujjatlar so'ramasdan 3 kun muddat ichida Sug'urta ta'minotini to'lamaslik sabablarini to'liq tushuntirgan holda yozma ravishda rad javobini beradi.

5.6. Sug'urtalangan bola vafot etganda Sug'urta ta'minoti Sug'urta qildiruvchiga yoki vorislariga to'lanadi.

5.7. Sug'urtalangan vafoti tufayli Sug'urta qildiruvchi ariza, Sug'urta polisi bilan birga Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan berilgan o'limi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasini beradi.

5.8. Vorislari esa ariza bilan birga Sug'urta polisini va Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan berilgan o'limi to'g'risidagi guvohnomani notarial idoradan tasdiqlangan nusxasini hamda vorislilik huquqi to'g'risida notarial idora bergan guvohnomani beradi.

5.9. Sug'urta ta'minoti dalolatnoma imzolangan kundan 5 bank kuni ichida Sug'urtalangan shaxs (Naf oluvchi)ning bankdagi omonat daftarchasiga yoki plastik kartochka hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETILISHI

6.1. Sug'urta shartnomasining shartlarini bajarmaganlik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunida belgilangan javobgarlikni teng darajada olib boradilar.

6.2. Mazkur sug'urta shartnomasidan kelib chiqadigan barcha baxs va munozaralar o'zaro kelishuvga binoan, kelishish imkoni bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida ko'zda tutilgan amaldagi qonunchilikka asosan ko'rib chiqiladi.